

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
Muminov Obidjon Odilovich	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
Джуманов А.А.	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
Мамутова Айгуль Калмурзаевна	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
Алиев Али Комил угли, Каримова А.	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
Raximov Azamat Hamroqulovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
Ozodova Farida Zarif qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
Тураева А. И.	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
Alimov Nasimjon Hoshimovich	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	221
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI	228
Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
Ismailov Naufal Nadirovich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING	245
Begzod Nishanov	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL	251
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI	259
Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.	263
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA	268
Farida Nishanova	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	274
Xakimov Zafar Ibragimovich	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Xakimov Zafar Ibragimovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

E-mail: Xakimovzafar177@gmail.com

ORCID: 0009-0007-7581-8498

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy holati va kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlari ilmiy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi agrar tarmoqda eksport salohiyatini oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada sohani moliyalashtirishdagi asosiy muammolar, jumladan, eksportni sug'urtalash, kredit-kafolat tizimlarining samaradorligi va xalqaro moliya institutlarining o'rni keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: eksportni moliyalashtirish, qishloq xo'jaligi, subsidiya, imtiyozli kredit, agrar sektor, eksport salohiyati, investitsiya, valyuta tushumi.

Abstract. This article scientifically and practically analyzes the current state and future prospects of financial support for the export of agricultural products, one of the important sectors of Uzbekistan's economy. The purpose of the study is to develop proposals and recommendations for improving financial mechanisms necessary to increase export potential in the agricultural sector. The article widely covers the main problems in financing the sector, including export insurance, the effectiveness of credit-guarantee systems, and the role of international financial institutions.

Keywords: export financing, agriculture, subsidy, preferential loan, agricultural sector, export potential, investment, foreign exchange earnings.

Аннотация. В данной статье с научной и практической точек зрения проанализированы современное состояние и перспективные направления финансовой поддержки экспорта сельскохозяйственной продукции, являющейся одним из важных направлений экономики Узбекистана. Цель исследования заключается в разработке предложений и рекомендаций по совершенствованию финансовых механизмов, необходимых для повышения экспортного потенциала аграрного сектора. В статье широко освещены основные проблемы финансирования отрасли, включая страхование экспорта, эффективность кредитно-гарантийных систем и роль международных финансовых институтов.

Ключевые слова: финансирование экспорта, сельское хозяйство, субсидия, льготный кредит, аграрный сектор, экспортный потенциал, инвестиции, валютные поступления.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Global iqlim o'zgarishi va aholi sonining o'sib borishi sharoitida agrar mahsulotlarni yetishtirish va ularni tashqi bozorlarga yetkazib berish har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligi garovidir. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida qishloq xo'jaligi sohasini tubdan isloh qilish, eksport hajmini oshirish va tarmoqni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, mahsulotlarni qayta ishlash darajasini oshirish va yangi bozorlarga chiqish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi [1]. Ayniqsa, 2020–2030-yillarga mo'ljallangan Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi doirasida belgilangan vazifalar sohaning eksport salohiyatini yangi



bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonda moliyaviy dastaklar, xususan, eksportchilar uchun yaratilgan imtiyozli sharoitlar muhim o'rin tutadi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, agrar mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash qiyin kechadi. O'zbekiston sharoitida ham meva-sabzavotchilik va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini eksport qilishda moliyaviy resurslarning yetishmasligi, sug'urta xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va logistika xarajatlarining yuqoriligi eksport faoliyatini kengaytirishda muhim cheklovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli eksportni moliyaviy rag'batlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini ilmiy tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Hukumat tomonidan har yili eksportni qo'llab-quvvatlashga 700 milliard so'm va ishlab chiqarishni ko'paytirishga 1 trillion so'm mablag' yo'naltirilayotgani soha ahamiyatini ko'rsatadi [2]. Biroq 2023-yilda meva-sabzavot eksporti taxminan 2 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, mavjud salohiyat 5 milliard dollardan oshishi hisob-kitob qilingan. Bu esa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini tahlil qilish va ularni yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi. Eksport jarayonlarining barcha bosqichlarini, ya'ni mahsulot yetishtirishdan boshlab xalqaro bozorlarga yetkazib berishgacha bo'lgan zanjirni moliyaviy ta'minlash iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanadi. Mazkur maqolada ushbu masalalar tizimli tahlil qilinib, amaliy takliflar shakllantirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Masalan, iqtisodchi olimlar M. Gulyamov va A. Berkinov agrar sohada davlat subsidiyalari va imtiyozli kreditlash mexanizmlarining korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'rgangan. Ularning fikricha, agrar eksportda moliyaviy xatarlarni sug'urtalash tizimi raqobatbardoshlikning eng muhim shartlaridan biridir [4; 5]. Shuningdek, xalqaro miqyosda qishloq xo'jaligi savdosi va uni moliyalashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan J. Porter va R. Baldwin kabi olimlar davlatning eksport kredit agentliklari (ECA) orqali beradigan kafolatlari xalqaro bozordagi ulushni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlashgan. Ular agrar eksportni moliyalashtirishda nafaqat bank kreditlari, balki faktoring, lizing va venchur kapitali kabi muqobil manbalardan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatib berishgan [10; 88 b.]. O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham so'nggi yillarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali uslubiyotini yaratish ustida ishlamoqda. Jumladan, UNDP hisobotlarida O'zbekistonda agrobiznes transformatsiyasi uchun kiritilayotgan investitsiyalar hajmi va ularning samaradorligi bo'yicha tahliliy xulosalar keltirilgan bo'lib, unda kichik fermer xo'jaliklarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati hali ham cheklanganligi qayd etilgan [6]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, agrar eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha nazariy qarashlar rivojlanayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy sharoitida ushbu mexanizmlarni optimallashtirish va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash masalalari hali to'liq yechimini topmagan. Shu sababli ushbu maqolada mavjud nazariy yondashuvlarni amaliy statistika bilan bog'lagan holda yangi istiqbolli yo'nalishlar taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligini baholash uchun bir qator ilmiy uslublardan foydalanildi. Birinchidan, tizimli tahlil usuli yordamida eksportni moliyalashtirishning amaldagi mexanizmlari, jumladan, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Ikkinchidan, statistik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonning agrar eksport dinamikasi va unga yo'naltirilgan davlat mablag'lari hajmi solishtirildi. Bu esa moliyaviy yordamning eksport o'sishiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash imkonini berdi [3]. Shuningdek, tadqiqotda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari qo'llanilib, kelajakdagi eksport prognozlarini ishlab chiqildi. Ma'lumotlar asosan O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlaridan olindi. Ekspertlar bilan o'tkazilgan so'rovlar va agrar sohadagi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tahlil qilish orqali sohadagi real to'siqlar aniqlandi. Tanlangan usullar majmuasi tadqiqot natijalarining xolisligi va asosli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sib bormoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda eksport hajmi qariyb 2 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Biroq 2024-yil uchun qo'yilgan maqsad — eksport hajmini 3,5 milliard dollarga yetkazish bo'lib, bu ko'rsatkichga erishish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar va yangi

mexanizmlar talab etiladi. Hozirgi vaqtda eksportning 80 foizi asosan beshta davlat — Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy, Turkiya va Qirg‘iziston bozoriga to‘g‘ri kelayotganligi geografik diversifikatsiya masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda [2]. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari doirasida eksportchi korxonalariga aylanma mablag‘lar uchun 1,5 trillion so‘mgacha kredit resurslari yo‘naltirilishi belgilangan. Bu mablag‘lar mahsulotlarni saqlash, saralash, quritish va qayta ishlash bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirishga sarflanadi. Quyida 2021–2024-yillar oralig‘idagi asosiy ko‘rsatkichlar tahlili keltiriladi.

1-jadval.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dinamikasi (2021-2024-yillar)¹

Ko‘rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Eksport hajmi (mlrd. AQSH doll.)	1,2	1,5	2,0	3,5
Yo‘naltirilgan subsidiyalar (mlrd. so‘m)	450	580	700	950
Imtiyozli kreditlar hajmi (trln. so‘m)	0,8	1,1	1,5	2,2
Eksport qiluvchi korxonalar soni	1850	2100	2362	2800

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalar va kreditlar hajmi ortishi bilan eksport hajmi ham mutanosib ravishda o‘tib bormoqda. Ayniqsa, 2024-yil uchun belgilangan 3,5 milliard dollarlik maqsadli ko‘rsatkich davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Masalan, endilikda tadbirkorlarning barqarorlik reytingiga qarab, xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish xarajatlari 100 foizgacha qoplab berilmoqda [8; 1 b.]. Bu esa kichik va o‘rta biznes vakillariga yangi bozorlarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mahsulotni eksportga yuklashda transport xarajatlarining bir qismi davlat tomonidan kompensatsiya qilinishi natijasida mahsulotlarning tashqi bozordagi narxi raqobatbardosh bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish uchun eksportni sug‘urtalash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Hozirgi kunda agrar eksportda sug‘urta qoplamasi ulushining yetarli emasligi eksportchilarning yangi va nisbatan tavakkalchiligi yuqori bo‘lgan bozorlarga chiqish imkoniyatlarini cheklamoqda. Kelgusida “Eksportni qo‘llab-quvvatlash agentligi” orqali sug‘urta mukofotlarini subsidiyalash amaliyotini joriy etish kutilmoqda. Moliyaviy tizimning asosiy komponentlarini quyidagi chizmada ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligi eksportini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning kompleks tizimi².

1 Manba: Rasmiy statistik ma‘lumotlar va muallif hisob-kitoblari asosida tuzildi.
 2 Manba: Muallif tomonidan rasmiy ma‘lumotlar asosida ishlab chiqildi.



Tahlillar natijasida aniqlanishicha, O'zbekistonning agrar eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, hali to'liq foydalanilmagan imkoniyatlar sezilarli darajada mavjud. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida agrar eksportni qo'llab-quvvatlashda asosan mahsulot sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga urg'u beriladi. O'zbekistonda esa hozircha ko'proq miqdoriy ko'rsatkichlarga va bevosita subsidiyalarga tayanilmoqda [14; 5 b.]. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash lozimki, faqatgina kreditlar hajmini oshirish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning o'rniga, eksport zanjirining barcha ishtirokchilari — fermerdan tortib logistika kompaniyasigacha bo'lgan subyektlarni o'z ichiga olgan klasterli moliyalashtirish modelini kengaytirish lozim. Shuningdek, xorijiy bozorlarda O'zbekiston brendini yaratish va uning nufuzini oshirish uchun moliyaviy mablag'larni marketing tadqiqotlariga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Rasmiy manbalarda ta'kidlanganidek, inflyatsiyani jilovlash va valyuta barqarorligini ta'minlash eksport hajmini oshirish bilan bevosita bog'liq. Demak, moliyaviy qo'llab-quvvatlash nafaqat korxonada, balki makroiqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyatga ega. Kelgusida istiqbolli yo'nalish sifatida eksport kredit-kafolatlarini tizimini raqamlashtirish va "Smart export" platformalari orqali moliyaviy operatsiyalarni shaffof amalga oshirish taklif etiladi. Bu esa moliyaviy operatsiyalar shaffofligini oshirishga hamda mablag'larning manzilli yo'naltirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining asosi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat tomonidan ko'rilyotgan choralar eksport hajmini oshirishda o'z samarasini bermoqda, biroq tizimni yanada takomillashtirish zarur. Birinchidan, eksportchi korxonalarga ajratiladigan kreditlar muddatini uzaytirish va foiz stavkalarini mahsulotning yetilish davri bilan muvofiqlashtirish lozim. Ikkinchidan, eksportni sug'urtalashning zamonaviy turlarini, jumladan, tashqi savdo va iqtisodiy xatarlardan himoya qilish mexanizmlarini keng joriy etish lozim. Uchinchidan, transport-logistika xarajatlarini subsidiyalashda mahsulotning qayta ishlanganlik darajasiga qarab tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, agrar sohada raqamli moliyaviy texnologiyalarni (FinTech) rivojlantirish orqali eksport operatsiyalari xarajatlarini kamaytirish mumkin. Beshinchidan, xalqaro moliya institutlari (EBRD, Jahon banki) bilan hamkorlikda eksportbop mahsulotlar yetishtirish uchun uzoq muddatli "yashil" kreditlar jalb qilishni kengaytirish zarur [13; 45 b.]. Mazkur choralar 2024-yilda va kelgusi yillarda belgilangan eksport prognozlarini muvaffaqiyatli bajarishga hamda O'zbekistonning jahon bozorida o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-martdagi videosektor yig'ilishi bayoni "Qishloq xo'jaligida eksportni ko'paytirish masalalari".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Tashqi savdo aylanmasi bo'yicha hisobotlar. 2023–2024-yillar.
4. Gulyamov S. S. Raqamli iqtisodiyotda agrosanoat majmuasini moliyalashtirish. — Toshkent, 2022.
5. Berkinov A. B. Agrar sohada innovatsion rivojlanish strategiyalari. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
6. UNDP. Agricultural Financing in Uzbekistan: Analysis and Recommendations. — 2024.
7. EBRD. Supporting Agribusiness Transformation in Central Asia. — 2025.
8. AgroWorld Uzbekistan. Eksportchi tadbirkorlarga subsidiyalar ajratish tartibi. — 2024.
9. Invest Uzbekistan portal. Snapshot of the Agricultural Sector. — 2025.
10. Porter J. M. Global Trade and Agricultural Support Systems. — Oxford: Oxford University Press, 2020.
11. USDA Foreign Agricultural Service. Export Financing Programs and Credit Guarantees. — 2023.
12. World Bank. Uzbekistan: Modernizing Agriculture for Economic Growth. — 2023.
13. Caravan-info.uz. 2024-yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti tahlili.
14. CAS Journal. State Financial Support and Tax Incentives in the Agricultural Sector of Uzbekistan. — 2024.
15. Xabar.uz. Qishloq xo'jaligi eksportini 3,5 milliard dollarga yetkazish rejalari. — 2024-yil 10-fevral.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100